

**RAQAMLASHTIRILGAN MA'MURIY PROTSEDURALAR VA
HUQUQIY KAFOLATLARNING TRANSFORMATSIYASI**

Mamatkulov Ural Erjigitovich

Raxmetov Xabibulla Xasanovich

Babadjanova Obida Muminovna

Toshkent davlat agrar universiteti

Huquqshunoslik kafedrasi professor-o'qituvchilari

Annotatsiya: *hozirgi vaqtda zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan davlat va jamiyatning har bir sohasiga kirib bormoqda. Shu o'rinda zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda davlat boshqaruvi apparatini shakllantirish, davlat xizmatlarining deyarli barcha turlarini amalga oshirishdan bir vaqtning o'zida ham davlat, ham davlat hokimiyatining birdan bir manbai bo'lgan xalq ham birdek manfaatdor hisoblanadi. Chunki rivojlangan texnologiyalar ko'plab ishlarni va davlat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ortiqcha vaqt, kuch talab etmagan holda amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Sir emaski, hozirgi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan qurol sifatida foydalanayotgan yoki o'zlarining buzg'inchilik maqsadlariga erishish yo'lida foydalanayotgan shaxslarni yo'q deb bo'lmaydi. Bu kabi holatlarning tez tez kuzatilishi va samaradorlikka erishish, imkon qadar texno vositalardan unumli foydalanish, yuzaga kelayotgan muammolarni maqbul yechim bilan bartaraf etish kabi davlatning oldida turgan vazifalar shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalarga moslashishni va texnologik vositalardan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solishni talab etmoqda.*

Kalit so'zlar: *elektron hukumat, elektron demokratiya, chetdabek, axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, norma ijodkorligi, sun'iy intellekt.*

Kirish

Davlat inson huquq va erkinliklarini ta'minlashni o'z faoliyatining pirovard oliy maqsadi sifatida qaraydi. Shuning uchun, o'z xalqi munosib turmush tarzini kechirishi, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, demokratik huquq va erkinliklarni muhofaza qilish yo'lida har bir davlat barcha vositalar va imkoniyatlaridan foydalanadi. Yigirmanchi asr oxiri va yigirma birinchi asr boshlarida shunday vositalardan biri bo'lgan elektron texnikalar va robot texnologiyalar bilan davlat o'zaro yuzlashdi va ayni damda rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar o'zlarining milliy qonunchilik tizimini texnologik xurujlar va ularning milliy manfaatlarga ta'siri, ijtimoiy munosabatlardagi ro'lini hisobga olgan holda, takomillashtirib bormoqda. Har bir yangi texnologiya insoniyat uchun yangi imkoniyatlar yaratayotganligi qonunlarning tobora o'z ahamiyati va ta'sirchanligini yo'qolib borishiga olib kelmoqda. Bu esa, huquq ijodkorlarining global jarayonlar bilan kelishib, zamonaviy texnologiyalar bilan hisoblashgan holda ijod qilishlarini taqozo etadi.

Asosiy qism.

Dunyo xalqlarining yigirma birinchi asrda qolgan davrlarga nisbatan tinch totuv yashayotganligi, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilanishiga, o'zaro hamkorlikni patensial ravishda o'sishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida globallashuv jarayonlarini rekord darajada jadallashishini taqozo etar edi. Shu asnoda davlatlar bir birlaridan ko'plab sohalarda o'zaro raqobat qilib, gegemonga aylanish ilinjida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanishni yo'lga qo'ymoqda. Davlat boshqaruvini demokratik tarzda olib borishni, faol fuqarolik jamiyatini ro'yobga chiqarishni ko'zlovchi har bir davlat texnologiyalardan foydalanishni inkor eta olmasligi turgan gap. Masalan, O'zbekiston Respublikasida

2015-yil 9-dekabrda “Elektron hukumat to‘g‘risida” gi qonun qabul qilindi. Bundan ko‘zlangan maqsad : “davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minlash, ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta’minlashning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish;

ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish;

aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma’lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida “bir darcha” prinsipini joriy etish;

tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruv, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o‘tkazish;

tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish"¹dan iborat edi.

Ushbu qonunni qabul qilish zarurati rivojlanishda to'xtamayotgan davlatlar bilan hamnafas bo'lish va davlatning xalq oldidagi funksional vazifalarini tez va sifatli, korrupsion omillarni bartaraf etgan holda bajarish bilan bog'liq edi. Davlat boshqaruv tizimini raqamlashtirish, inson faktorini kamaytirgan holda ijro mexanizmini yaratish :

1. Korrupsion huquqbuzarliklarni shuningdek, davlat boshqaruviga tahdid soluvchi boshqa turdagi jinoyatlarni masalan, pora olish, xizmat mavqeini suistemol qilish kabilarni oldini oladi.

2. Davlat xizmatchisi yoki huquqni qo'llovchi shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tez va sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

3. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalq oldidagi hisobdorligini ta'minlaydi, oshkoralik va shaffoflikka zamin yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar demokratik boshqaruvni amalga oshirishdagi eng samarali va ishonchli vositadir. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasining professional faoliyatiga nazar solsak. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Reglamentiga muvofiq, Qonunchilik palatasi majlislarida ovoz berish ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan yoki yashirin ovoz berish byulletenlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin".² Ushbu tizim deputat ovozinig yashirin tarzda berilishini ta'minlaydi. Bu esa demokratik jarayonlarni bevosita tadbqiq etishning ayni

¹ O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-2833860>.

² O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti" to'g'risidagi qarori 93-moddasi 2-qism. <https://lex.uz/docs/-6205124>.

damdagi samarali usulidir. Aslida ovoz kim tomonidan berilishini noaniqlashtirishdan maqsad – xalq vakili qaysi tarafda turishi va agar u qarshi ovoz bersa yoki qo‘llab quvvatlasa, uning bu harakatlari kimlargadir yoqmasligi, tazyiqlarga uchrashi bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoli yuqori. Ko‘p yillar avval davlatlar ovozlarni yashirin tarzda berish bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan va ayni damda bu muammo ovozlarni hisoblash texnologiyasi orqali o‘z yechimini topdi.

Shu bilan birgalikda zamonaviy texnologiyalar orqali ba’zi bir shaxslar davlat tomonidan o‘rnatilgan tartib qoidalari “aylanib o‘tayotgani” sir emas. Bu esa qonunchilikda turli xil noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan insoniyat tarixida o‘g‘rilik jinoyatining ilk ko‘rinishlari o‘zgalarning omboriga, turar joyiga yashirin ravishda kirib, mol mulkni talon-taroj qilish kabi unchalik ham murakkab bo‘lmagan, sodda usullarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib bu jinoyatning kompyuter texnologiyalari orqali o‘zgalar mol mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish kabi murakkab shakli vujudga keldi. Bu esa o‘z navbatida o‘g‘rilikning bunday shaklini davlat tomonidan kriminalizatsiya qilish, davlatning milliy jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, yangi turdagi qilmishlarni jinoyat deb topishni taqozo etadi.

“2023-yil 23-avgustda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Raqamli sud ekspertizasi ilmiy-metodik markazi boshlig‘i va prokurori **G‘ayrat Musayev** hamda **Xagani Gadjiyev** O‘zbekistonda elektron to‘lov tizimlaridagi firibgarlikning yangi turi haqida ma’lumot berdi va mamlakat aholisini ayniqsa, tadbirkorlarni ogohlikka chaqirdi”³. Bu yangi turdagi qilmishning nomi “charjbek” edi. **Charjbek** (inglizcha chargeback) — to‘lovchi tomonidan tovar yoki xizmat

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/21/chargeback/>.

ko'rsatuvchi uchun amalga oshirilgan to'lovlarining (tranzaksiyalarning), tovar berilmasligi yoki xizmatlar ko'rsatilmasligi natijasida mablag'larning to'lovchiga qaytarilish jarayoni. Masalan Masalan, mijoz internet-do'kondan 10 million so'mlik so'nggi rusumdagi mobil telefonni bank kartasi yordamida onlayn to'lov orqali xarid qiladi. Ko'p vaqt o'tmay o'tmay, karta egasi ya'ni sotib oluvchi xaridor bunday operatsiyani amalga oshirmaganini asos qilib, bankka telefon qilib bankdan to'lovni qaytarishni so'raydi (charjbekni amalga oshiradi). Bank ushbu pulni sotuvchining hisobidan olib, mijozga qaytaradi. Sotuvchi xaridni kim tomonidan amalga oshirilganini isbotlay olmaydi, chunki u mijozni aniqlash uchun qo'shimcha choralar ko'rmagan bo'lib chiqadi. Hozirda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan charjbek yordamida firibgarlik holatlarini tekshirish va oldini olishning aniq metodologiyasi ishlab chiqilmagan. Banklarda ham ushbu mexanizmni suiiste'mol qilish holatlarini aniqlash va tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha maxsus tartiblar hozircha mavjud emasligini huquqni muhofaza qilish akademiyasi ma'lum qilgan. Bu kabi holatlar zamonaviy texnologiyalarning hozirgi zamon huquq tizimiga salbiy ta'siriga misol bo'la oladi. Albatta har qanday inson huquqlari va erkinliklari, qonuniy manfaatlariga zarar keltiruvchi har qanday qilmish jinoyat sifatida davlatning pozitiv huquqida aks etishi lozim. Lekin axborot texnologiyalari va kiber olam shu qadar jadal suratlarda kengaymoqdaki, qonunlarni ishlab chiqish va nanotexnologiyalar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish jarayonlari bu jarayonlardan anchayin ortda qolmoqda. Chunki qonunlarni yaratish va ularni qabul qilish murakkab va ko'proq vaqt va kuchni talab etuvchi jarayon.

Professor Odilqoriyevning fikrlariga ko'ra, "Huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan subyektlarning diqqat-e'tibori, manfaati, xatti-harakati qaratilgan real

ne'mat, aniq narsa, jarayon, harakatlar huquqiy munosabatning obyektini deb ataladi. Masalan, uy-joy oldi-sotti shartnomaviy munosabatining obyektini uy-joy tashkil etadi; odam o'ldirish jinoyatining obyektini – insonning hayoti; birovni haqorat qilish fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu huquqiy munosabatlar obyektini shaxsning sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori tashkil etadi"⁴. Ushbu modernizatsiyalashgan ashyolar, jumladan, insonlarga qulayliklar, afzalliklarni taqdim qiluvchi inson tomonidan yaratilgan buyumlar ham huquq obyektini sifatida talqin etilishi mumkin. Yaqin yillar ichida mobaynida zamonaviy texnologik gadjetlar O'zbekiston Respublikasiga ham kirib kela boshladi. Chunki bunday turdagi ashyolarga ehtiyoj aholining talab istaklariga muvofiq ortib kelmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy kasblar ichida eng ko'p tarqalgani turi dasturchilik kasbi ham ommalashib bormoqda. Texno olam shu zayilda o'sib bormoqdaki, kiber munosabatlar hali huquqiy jihatdan tartibga so'linishini kutib yotgan tarmoqlar, jamiyatdagi hali tartibga solinmagan munosabatlarning ichida eng oldi qatorlardan joy olgan. Shunga qaramay, O'zbekiston Respublikasida ushbu turdagi munosabatlar tobora keng tus olayotganligi, inson huquqlari va erkinliklariga bevosita dahl qilayotganligi, dolzarb muammolarni keltirib chiqarish xavfi ortib borayotganligi boisdan, 2022-yil 15-aprel sanasida "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi 764-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun jamiyatda yuzaga kelgan yangi turdagi kiber muammolarni bartaraf etishga xizmat qildi. Chunki ushbu normativ-huquqiy hujjat yuqorida sanab o'tilgan, yechimini kutib yotgan ko'p masalalarni joy-joyiga qo'yishda dastur amal vazifasini o'tadi. Jumladan, Qonunning 3-moddasiga ko'ra, ushbu sohadagi bir qancha terminlarga huquqiy maqom berilib, aniqlashtirildi.

⁴ Davlat va huquq nazariyasi, Odilqoriyev, Toshkent, 2009. 325-bet.
SJIF: 5.051

Unga ko‘ra, “**axborotlashtirish obyektiga** — turli darajadagi va maqsaddagi axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborotga ishlov berishning texnik vositalari, ushbu vositalar o‘rnatilgan va foydalaniladigan xonalar; **kiberjinoyatchilikga** — axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi; **kibermakonga** — axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit; **kibertahdidga** — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar majmui; **kiberxavfsizlikga** — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati”⁵ deya tarif berildi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, real ijtimoiy hayotda huquq subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar murakkablashib borgan sayin, uni tartibga solish mexanizmi ham shunchalik qiyinlashib boraveradi. Zamonaviy, taraqqiy etgan texnologiyalar ham huquq subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar va jarayonlarni komplekslashtirishga xizmat qilmoqda. Texnologiya oldinga siljishda davom etadi, ammo davlat boshqaruvi va huquq tizimining bunga moslashuvi ya’ni adaptatsiyalashuvi bu jarayondan ancha ortda qolayotgani turgan gap. Shu boisdan huquq ijodkorligining yanada ixcham, tezkor va samaralari usullarining mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzard masalalardan biridir. Bugun dunyo hamjamiyatida bu yo‘nalishda izlanishlar olib borgan yoki o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan olimlarni uchratish mumkin. Xususan, dunyo olimlari **I.V.Ponkina, A.I.Redkina, M.A.Rojkova, I.A.Filipova** sun’iy intellektga ega

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son. 3-modda. Asosiy tushunchalar <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>.

bo'lgan texnologiyalarni huquqiy tartibga solish muammolariga bag'ishlab qator ishlarni ommaga havola qilganlar. I.V.Ponkin va A.I.Redkinaning ta'kidlashicha, hali hamon tadqiqotchilar sun'iy intellekt qanday huquqiy tartibga solish bo'lishi kerakligi haqida hali bir fikrga kelishmagan: 1) oldindan ko'riladigan universal-total yoki 2) yaratilayotgan o'ziga xos sun'iy intellekt tizimlarini tartibga solishga qaratilgan, ayniqsa, bu sohaning doimiy ravishda rivojlanib borayotganligi va bu rivojlanish bir muncha vaqt o'tgach nimaga olib kelishini aniq bilib bo'lmaydi.⁶

Sun'iy intellektni tartibga solish ma'lum bir yondashuv asosida shakllanadi. Ko'p sonli tarafdorlarga ega bo'lgan ikkita asosiy yondashuv mavjud:

- 1) huquqiy (rasmiy);
- 2) texnologik.

Huquqiy yondashuv, xuddi qonunning o'zi kabi, konservativ, texnologik yondashuv esa, aksincha texnologik rivojlanish kabi. Konservativ huquqiy yondashuv tarafdorlari nuqtai nazaridan, robot tomonidan yetkazilgan zarar bo'lsa, robotning harakatlari uchun javobgarlikni uni ishga tushirgan shaxsga yuklash to'g'ri bo'ladi.⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonuni.
<https://lex.uz/docs/-2833860>.

⁶ Понкин, И. В. Искусственный интеллект с точки зрения права / И. В. Понкин, А. И. Редькина. // Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. – 2018. – Т. 22. – № 1. – С. 91–109.

⁷ Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, Samarqand davlat universiteti, 2022. 61-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti” to‘g‘risidagi qarori 93-moddasi 2-qism. <https://lex.uz/docs/-6205124>.
3. Saidov Sarvarning “Sun’iy intellektga ega texnologiyalarni huquqiy jihatdan tartibga solishga yondashuvlar olimlar nigohida” nomli maqolasi. 2023.
4. Davlat va huquq nazariyasi, Odilqoriyev, Toshkent, 2009. 325-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son. 3-modda. Asosiy tushunchalar <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>.
6. Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, Samarqand davlat universiteti, 2022. 61-bet.
7. Понкин, И. В. Искусственный интеллект с точки зрения права / И. В. Понкин, А. И. Редькина // Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. — 2018. — Т. 22. — № 1. — С. 91–109.